



THE ROLE OF CULTUROLOGY IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL CULTURE

Alisher Tuvlikovich Shukurov

Researcher at the Scientific Research

Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national culture, educational function, culturology, environment, practice, theory, international education, competitiveness, human resources potential.

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: This article provides a scientific justification for the importance of culturology as a key discipline in the development of national culture. It highlights existing shortcomings in this area and offers suggestions and recommendations for their resolution. Potential achievements that can be reached through the implementation of these proposals are also acknowledged. In addition, the historical foundations of the discipline are presented, and its current state is analyzed from a scholarly perspective.

MILLIY MADANIYATIMIZ TARAQQIYOTIDA MADANIYATSHUNOSLIKNING ROLI

Alisher Tuvlikovich Shukurov

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy

meros ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy madaniyat, tarbiyalovchilik funksiyasi, madaniyatshunoslik, atrof-muhit, amaliyot, nazariya, xalqaro ta'lim, raqobatdoshlik, kadrlar salohiyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy madaniyatning rivojlanishida madaniyatshunoslik fanining muhim fan sifatida o'rin egallashi ilmiy asoslab berilgan. Bu borada yuzaga kelayotgan kamchiliklar va ularning yechimlari taklif va tafsirlar orqali ko'rsatilgan. takliflarni amalga oshiriladigan bo'lsa, erishilishi mumkin bo'lgan yutuqlar e'tirof etilgan. Bundan tashqari, fanning tarixiy asoslari ko'rsatilib, bugungi kundagi holati ham ilmiy tahlil qilingan.

РОЛЬ КУЛЬТУРОЛОГИИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Алишер Тувликович Шукуров

*Научный сотрудник Научно-исследовательского
института культурологии и нематериального
культурного наследия
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальная культура, воспитательная функция, культурология, окружающая среда, практика, теория, международное образование, конкурентоспособность, кадровый потенциал.

Аннотация: В данной статье научно обосновано значение культурологии как важной науки в развитии национальной культуры. Отражены существующие недостатки в данной сфере и предложены пути их решения в виде рекомендаций и предложений. Также отмечены возможные достижения при реализации этих предложений. Кроме того, рассмотрены исторические основы данной науки и проведён научный анализ её современного состояния.

Kirish

Ma'naviy jarayonlar zamon va makon uyg'unligida shakllanib o'z xususiyatlarini o'zgartirib, yangicha tendensiyalar asosida jamiyat va shaxs taraqqiyoti omillarining tizimli yo'lga qo'yishda asosiy tamoyil hisoblanadi. Shu boisdan, har bir davlat o'z milliy madaniyatini saqlab qolish, kelgusi avlodga yetkazish uchun sa'y-harakatlar ko'rsatib turli qaror va farmonlar joriy etib, qo'llab-quvvatlab boraveradi. Jumladan, mamlakatimiz keyingi 8 yil davomida madaniyat va san'at sohasida davlat miqyosidagi qonun hamda qarorlar chiqarilib, amaliyotda qo'llanilayotgani bor gap. Madaniyat va san'at ta'limi borasida ham izchil islohotlar olib borilib, uning negizida yangi o'quv-qo'llanmalar shakllanmoqda. Bu holat ma'lum darajada bizni quvontirsa-da, ba'zi muammolar milliy madaniyatimizni targ'ib etuvchi kadrlar bilimini oshirishda yetarli darajada imkon bermayapti. Bunga Madaniyat vazirligi tizimidagi o'rta hamda o'rta-maxsus, oliy ta'lim muassasalarida Madaniyatshunoslik fanining o'qitilmayotganligi, faqatgina tayanch oliy ta'lim muassasasi bo'lmish san'at va madaniyat muassasasida ushbu fan o'qitilib hamda soha bo'yicha kadrlar tayyorlanayotganini aytish mumkin. Yuqorida biz aytgan quyi pog'onada ushbu fanning o'qitilmasligi hamda joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning o'z ish o'rinlarida faoliyat olib borishlariga imkon bermayapti. Biz madaniyatshunoslik fanining jamiyat taraqqiyotidagi asosiy omillarni belgilab berishi va izohlash maqsadida uning asl mohiyatini quyida ilmiy tahlil qilamiz.

Madaniyat ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan nihoyatda murakkab va favqulodda qiyin sohadir. Zero, unga xar bir xalq, millatning chigal va qarama-qarshiliklarga boy tarixi davomida, har doim

ham odilona, haqqoniy munosabat va baho berilavermaydi. Bu jarayonni o'rganuvchi fan madaniyatshunoslik fanidir.

Madaniyatshunoslik atamasi inglizchada Culturology, Kulturologie deb yuritiladi. G'arb olimlarining ta'kidlashicha, nemis olimi V.Ostvald 1913-yilda birinchi bor shu so'zni qo'llagan. Amerikalik antropolog Lesli Uayt 1949-yildagi maqolalarida ushbu terminni ilmiy va metodologik jihatlardan asoslab bergan. Ammo faqat XX asrning oxirgi choragiga kelib bu ilm sohasi alohida fan sifatida shakllandi, o'z kategoriyalari va qonuniyatlari, o'z strukturasi va funksiyalariga ega bo'ldi.

O'zbekistonda madaniyatshunoslik fani 90-yillardan keyin jadal rivojlana boshladi, ta'lim tizimiga kiritildi, adabiyotlar, o'quv-metodik materiallar bilan boyitildi. Lekin bu sohada hali «ochilmagan qo'riqlar», yechilmagan muammolar, kashf etilmagan qonuniyatlar bir talay. Ayniqsa, o'zbek xalqi yaratgan madaniyatni, ezgulik, insoniylikka to'la mentalitetini jahonda keng targ'ib qilish, dunyo xalqlariga yetkazish eng xayrli, eng sharaflilardir.

Madaniyatshunoslik fanida uning ilmiy tushunchalari — kategoriyalari to'g'risidagi masala alohida o'rin tutadi. Binobarin, har bir fan o'zi tadqiq etadigan obyektini ilmiy-mantiqiy jihatdan asoslashda muayyan kategoriya va tushunchalarni ishlab chiqadi va ularga suyanib ish ko'radi. Madaniyatshunoslik fan sifatida shakllanar ekan, falsafa va boshqa fanlarning “madaniyat”, “ijodiy faoliyat”, “san'at” singari kategoriya laridan samarali foydalanib keladi. Ayni vaqtda, uning o'ziga xos kategoriyalari ham tarkib topgan. Ular sirasiga keng ma'noda “madaniy qadriyat”, “madaniy-tarixiy jarayon”, “ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish”, “ma'naviy ravnaq”, “madaniyat subyekti va obyekti”, “madaniy dalil”, “madaniy meros”, “madaniylik darajasi”, “madaniy vorislik” va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu fan dunyo bo'ylab bir necha nufuzli davlat universitetlarida bakalavr, magistr yo'nalishlarida kadrlar tayyorlamoqda. Jumladan, Amerikada Kaliforniya Berkele uniiversiteti, Amsterdam universiteti, Buyuk Britaniya universiteti, Rossiya davlat gumanitar institute, Yevropa davlat Sankt-Peterburg universiteti, Shoholov Markv davlat institutida tehsil olgan talabalar Rossiya davlatidagi batcha umumta'lim maktablarida dars bermoqda.

Rossiya oliy ta'limida va maktablarda madaniyatshunoslik fani turkumi asosida 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan o'quvchilar uchun quyidagi fanlar o'tiladi.

- Odob qoidalari bo'yicha dars soatlari, 1-4 sinflar orasida
- 4-5 sinflarda - Rossiya xalqlarining ma'naviy-axloqiy madaniyati asoslari fani
- 7-11 sinf Jahon badiiy madaniyati fani.

Oliy ta'limida esa:

Madaniy xilma-xillikda madaniyatlarning birgalikda yashashi, Madaniy antropologiyaga kirish, Madaniyatshunoslikka kirish, Teatrshunoslikka kirish, Hammasi odob-axloq qoidalari,

Qadimgi tillar va madaniyatlar, Rus madaniyati tarixining ma'naviy asoslari, Jahon madaniyati tarixida oltin asr, Madaniyatshunoslik muammoli kitob, Madaniyat sohasidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Tarixiy madaniyatshunoslik, Madaniyatshunoslik tarixi, Vizantiya madaniyati, Madaniy antropologiyaga kirish, Rus madaniyati, rus zodagonlarining hayoti va an'analari haqida suhbatlar kabi fanlarda ko'rish mumkin.

1991-yildan so'ng barcha oliy ta'lim muassasalarining 2-kurs talabalari o'quv dasturiga "Madaniyatshunoslik" fani kiritildi va o'qitila boshlandi. Biroq, bu fanning nazariyasi va amaliyoti masalasida yetarlicha bilim beradigan mutaxassislar kamchilikni tashkil qilgan. Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida bu borada birmuncha ishlar amalga oshirildi. Shunday bo'lsa-da, madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida falsafa fani tarkibida ko'rildi va bu fan bo'yicha tadqiqot olib borish masalasi Respublikadagi falsafa fani vakillariga olib berildi. Shu bois, 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarix ixtisosligi bo'yicha tadqiqotchilarning dissertatsiyalari himoyaga tavsiya qilina boshlandi. Jamiyatda madaniyatning falsafiy talqini, nazariyasi hamda tarixiy jarayonlardagi o'rni masalasi bo'yicha bir necha tadqiqotchilar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildi.

Shu o'rinda madaniyatshunos so'ziga baho bersak, Madaniyatshunos — bu madaniyatning kelib chiqishi, rivojlanishi, tarkibi, funksiyalari va jamiyatdagi roli haqida ilmiy izlanish olib boradigan mutaxassisdir. Ular turli xalqlarning urfdodlari, an'analari, qadriyatlar, san'ati va madaniy merosini o'rganish, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish, modernizatsiya, globalizatsiya kabi jarayonlarning milliy madaniyatga ta'siri, festival, teatr, san'at, dizayn, madaniyat markazlari singari madaniy faoliyatlarni tadqiq qilish, tarixiy va zamonaviy madaniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish bilan shug'ullanadilar. Vatanimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodning ma'naviy olamini boy, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun butun insoniyat necha ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat xazinalaridan bahramand etish, unda barcha xalqlarga hurmat, milliy iftixor, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otish va shakllantirishdan iborat.

Madaniyatshunoslik fanining maqsad va vazifalari:

- Tevarak-atrofga moslashuvchanlik funksiyasi.
- Madaniyatning bilish yoki gnoseologik funksiyasi
- Madaniyatning axborot funksiyasi
- Madaniyatning kommunikativ funksiyasi
- Madaniyatning aksiologik (qadriyatlar) funksiyasi
- Madaniyatning ijtimoiylashuv funksiyasi.
- Madaniyatning tarbiyalovchilik funksiyasi

Bugungi kunda madaniyatshunoslikning asosiy funksiyasi sifatida tarbiyalash asosiy omil hisoblanmoqda u shu jarayon orqali milliy madaniyatimiz ravnaqiga hissa qo'shmoqda.

Madaniyatning tarbiyalovchilik funksiyasi - madaniyat funksiyalari tizimida uning tarbiyalovchilik funksiyasi alohida o'rin egallaydi. Darhaqiqat, bugungi O'zbekiston jamiyatida sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish, yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz kerak. Bu sohada olib borayotgan ishlarimiz, afsuski, biz kutgan natijalarni bermayapti. Bugun mamlakatimizda tarbiya masalasi bilan shug'ullanadigan mukammal tizim yaratildi. Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim tizimida tarbiya masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, 2019-yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" qabul qilindi. Mahallalarda mazkur masala bilan shug'ullanuvchi mutasaddilar tayinlandi. Mamlakatimizdagi barcha maktablarda "Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi" lavozimi joriy etildi. Boshqacha so'z bilan aytganda, bugun yurtimizda tarbiya masalalari umumxalq, umummillat vazifasiga aylandi. Madaniyat markazlarida madaniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mutaxassis faoliyati yo'lga qo'yildi. Respublikamizning birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2008-yil 28-aprel PQ-845-son buyrug'i asosida O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filiali hamda 2012-yil 4-iyun PQ-1771-sonli qarori asosida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutlari tashkil etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 16-avgust PQ-3218-sonli qarori asosida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etilishi va 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlanganligi fikrimizga dalil bo'la oladi. Ayni paytda oliy o'quv yurtlarini madaniyatshunoslik yo'nalishi bo'yicha tamomlayotgan kadrlar mutaxassisligiga oid faoliyat bilan shug'ullana olmayotganligi, sodda qilib aytganda, o'z sohasi bo'yicha ishga joylasha olmayotganligi ko'z yumib bo'lmaydigan haqiqatdir. Ular o'z sohasi bo'yicha ishlash maqsadida madaniyat yo'nalishidagi barcha muassasalarga murojaat qilishsa-da, o'zlariga mos ish topa olmaganliklari uchun ko'pincha boshqa sohalarda faoliyatini davom ettirishga, imkoniyatlari borlari esa ikkinchi mutaxassislik bo'yicha boshqa oliy o'quv yurtlarida o'qishga majbur bo'lmoqdalar. Buning boisi, respublikamizdagi sanoqli oliy o'quv yurtlaridagina madaniyatshunoslik qo'shimcha fan sifatida o'quv dasturiga kiritilgan. Ustiga-ustak, bu fanga ajratilgan dars soatlari ham juda kam.

Madaniyatshunoslikni rivojlantirish omillari:

- xalqaro ta'lim jarayonini O'zbekiston. universitetlarida tashkil etish, madaniyatshunoslik fani misolida ;
- amaliyot va nazariyani umumlashtirish;

- raqobatdoshlikni yuzaga keltirish.
- Bugungi kunda tayyorlanayotgan kadrlar barcha oliy ta'lim muassasalari tomonidan qaysi sohada kadr yetishmasligini o'rganib, ishga joylashishi jarayoni asosida qabul kvotalarini yaratish;
- Madaniyat va san'at sohasida amaliyot va nazariyani umumlashtirgan holda ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish, yani tayyorlanayotgan kadr o'zi ishga boradigan korxonaga 1-kursdan amaliyotga yo'naltirilishi, farqli o'laroq talaba o'qishni bitirgandan so'ng, elektron vosita orqali o'zi amaliyot o'tagan korxonaga to'g'ridan to'g'ri ishga kirishi, bu jarayon talabaning o'qishga kirishdan avval, saralab olingan kvotaga yo'naltirilishi va shu borada o'z ishini yo'lga qo'yish;
- Raqobatdoshlik, yani bu jarayon xususiy va davlat muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ortasida taklif qilinayotgan ishlar borasida har br talaba oz salohhiyatiga kora, test topshirish, suhbat kabi imtihonlar asosida togirdan togri ishga qabul qilinishi.

Yuqoridagi muammolarga yechimlarini topishda quyidagilardan foydalanamiz:

- Madaniyat va san'at borasida tayyorlanayotgan kadrlar madaniyat nazariyasi va amaliyoti bo'yicha chuqur bilim egallaydi;
- Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi kadrlar kelajakda o'z shogirdlari sohasining chuqur bilimdoni bo'lib yetishishiga hissa qo'shadi;
- Kadrlar madaniyatning asl mohiyatini anglaydi, unga qiziqishi ortadi;
- Sohada yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, madaniyatshunoslik fanini barcha ta'lim muassasalari ya'ni boshlang'ich ta'limdan to oliy o'quv yurtlariga qadar o'qitilishi muhim sanalib, bizning millatimiz madaniyatini yuqori darajaga ko'tarishda vosita bo'la oladi. Zero tarbiyali, ma'naviyatli-marifatli farzandlari bor mamlakat doimiy tarzda o'zining barqaror faoliyatini va rivojlantirishni amalga oshira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. "O'zbekiston". Toshkent – 2023.
2. Madaniyatshunoslik asoslari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent – 2006.
3. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2010.
4. A. Mavrulov. M.Mavrulova. Madaniyat nazariyasi. O'quv-qo'llanma. Toshkent. "Donishmand ziyosi" – 2023.